



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING
YANGI BOSQICHI:
ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA
ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

1. B.B. Ma'murov – Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;
2. Z.M. Muqimov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;
3. G.R. Akramova – Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo;
4. X.A. Xaitov – Tillar fakulteti dekani, a'zo;
6. U.S.Amonov – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo;
7. D.B.Axmedova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
8. G.B.Rustamova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
9. G.R.Mirxanova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
10. R.A.Saidova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
11. Y.U.Nurova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
12. Sh.Sh.Nizomova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
13. N.H.Hojiyeva – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
14. M.U.Usmonova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
15. N.A.Bafoyeva – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
16. N.O. Avazova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
17. S.T. Latipova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo

ILMIY ANJUMANNING TASHKILY QO'MITASI

1. M.M. Bafayev – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais;
2. M.L. Umedjanova – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini;
3. U.S. Amonov – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo;
4. F.R.Rustamov – Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari
5. L.F. Sharipova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
6. M.Y. Ro'ziyeva – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
7. Sh.M. Istamova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
8. M.B. Sharipova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
9. G.B. Rustamova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
10. R.R. Xalilova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
11. M.U. Usmonova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
12. F.K. Nurova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
13. N.N. Mirjonov – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
14. M.Y. Latifova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
15. M.A. Tilavova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
16. M.V. Jabborova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo.

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

YOZUVCHI JO'RA FOZIL ASARLARINING TIL XUSUSIYATLARI

Latipova Sayyora Tohir qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

sayyoralatipova97@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahoratli adib Jo'ra Fozil ijodining o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot beriladi. Yozuvchi asarlarining til xususiyatlari aks etadi. Mazkur jihatning badiiy asar mazmun-mohiyatiga ta'siri ko'rsatiladi. Til va adabiyotning uyg'unligi masalasi badiiy ijodda muhimligi o'z tasdig'ini topadi.

Kalit so'zlar: roman, hikoya, qissa, turkum, uslub, roviy, obraz, afsona, qahramon, qahramon, ibora, tashbeh.

Аннотация: В статье представлена информация об уникальных аспектах творчества талантливого писателя Жоры Фозила. Отражены языковые особенности произведений писателя. Показано влияние этого аспекта на содержание и суть художественного произведения. Подтверждена важность проблемы гармонии языка и литературы в художественном творчестве.

Ключевые слова: роман, повесть, рассказ, серия, стиль, повествователь, образ, легенда, герой, фраза, аллегория.

Abstract: This article provides information about the unique aspects of the work of the talented writer Jora Fozil. The linguistic features of the writer's works are reflected. The influence of this aspect on the content and essence of the work of art is shown. The importance of the issue of the harmony of language and literature in artistic creation is confirmed.

Keywords: novel, story, short story, series, style, narrator, image, legend, hero, hero, phrase, allegory.

Jo'ra Fozil – nafaqat Buxoro adabiy harakatchiligi, balki keng qamrovli milliy nasr maydonida o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkor. Har bir qalam sohibining o'z faoliyati bo'yicha kamol topishi, kitobxonlarga manzur bo'ladigan asarlar yaratishi o'z-o'zidan bo'lib qolmaydi. Uning uchun oilaviy muhit, bolalikdan qobiliyat va salohiyatning shakllanishi, tug'ma iste'dod kerak. Jo'ra Fozil shaxsiyatida yuqorida sanab o'tilgan omillarning barchasi mujassam.

Adib asarlarini o'qigan kitobxon, uning o'z so'zi, o'z qarashlari, hayot va insonga bo'lgan o'ziga xos munosabati borligiga ishonch hosil qiladi. Tili shirali, tasvirlari aniq va yorqin, yaratgan qahramonlari jozibali va tabiiy insoniy qiyofalarga ega bo'lgan odamlardir.

So'z ustasi o'ziga xos badiiy uslubga ega. Asarlarida xalqchil iboralar, tasviriy vositalar, tabiat hodisalari bilan bog'liq tasvirlar ko'p uchraydi. U qahramon ruhiyatini yoritishda psixologizmga alohida e'tibor qaratadi.

Atoqli rus san'atkori Aleksey Tolstoy yosh ijodkorlar bilan o'tkazgan suhbatlarning birida: "Yozuvchi bir paytning o'zida ham adib, ham faylasuf, ham ko'p qirrali olim bo'lishi kerak", – degan fikrlarni ilgari surgan. Mazkur fikrlarni buxorolik adib shaxsiga, uning ijodiga ham daxldor deyish mumkin. Yozuvchi bir paytning o'zida ham adib, ham jurnalist, ham ona tili bilimdoni hamda mohir tarjimondir.

Adib ijodining o'ziga xosligi, uning har bir asarida "tiramoh" lug'aviy birligi qo'llanilganligida ko'rinadi. Qalam sohibi kuz so'zi o'rnida Buxoro shevalarida mavjud "tiramoh" birligini ishlatadi. Hatto nosirning "Tiramoh armonlari" sarlavhali asari ham bor.

Nosir asarlarida "bokira" kalimasi ham ancha faol qo'llangan. Adib ijodida bokira go'sha, bokira muhabbat, bokira qiz, bokira tuyg'u, bokira kulgu, bahor tongining bokira sukunati kabi ko'plab birikmalarga duch kelamiz. Adibning tarixiy mavzuda yaratilgan birgina "Ayriliq ostonasi" nomli romanida tong, qiz, go'zallik, muhabbat bokira deya ta'riflangan

hamda kimsasiz sahro – bokira go’sha deya ulug’langan o’rinlar mavjud. Bu leksik birlik adabiyotda aybsizlik, soflik, musaffolik, beg’uborlik, samimiylik ma’nolarini ifodalay oladi.

Nosirning aksariyat asarlarida ayollar “sohira” deya ataladi. Xususan, “Qizil quyun” nomli tarixiy qissada Abdulahadxon nutqida shunday holat kuzatiladi. “O, Zulayxo, makkora, go’zal sohira, seni sog’inmaslik, senga intilmaslik mumkin emas... Shu oyning oxirlarida, Alloh yo’l bersa, uchrashamiz!..” [1,120]

“Buxoro malikasi” sahlavhasi ostidagi asarda Buxoro “Foxira” tarzida qalamga olinadi. Bu ham, albatta, uning ijodiga xos jihatlardandir.

Yozuvchi ijodining o’ziga xos uslublaridan yana biri deyarli barcha asarlarida xalq og’zaki ijodi namunalari, xususan, maqollardan unumli foydalanganida yaqqol ko’rinadi. Birgina “Tiramoh armonlari” romanida o’ndan ortiq xalq maqollarining qo’llanganligini aniqladik. Bularga quyidagilar kiradi: “Ishonmagin do’stingga, somon tiqar po’stingga”, “Boshga tushganni ko’z ko’radi”, “Sinalmagan otning sirtidan o’tma”, “Bo’rini qancha boqsang ham, baribir o’rmonga qochib ketadi” va boshqalar. Asarda qo’llangan maqollar bir o’rinda personajlar individualligini, boshqa o’rinda esa roman badiiyligini oshirishga xizmat qilgan.

Jo’ra Fozil hayotda aynan bo’lgan, o’zi guvohi bo’lgan yoki unda bevosita ishtirok etgan voqea-hodisalarni adabiyotga olib kirgan. Shu sababli ham qalam navkari asar haqqoniyligini yo’qotmasligi uchun ba’zi o’rinlarda shevaga oid so’zlar, uslubiy g’alizni ham qo’llangan. Hatto ayrim qismlarda asar qahramoni sifatida tanlangan shaxslarni ismi, xarakteri, ma’naviy qiyofasi, axloqi, ijtimoiy holatini o’zgarmagan holda adabiyotga olib kiradi. Bu orqali nosir qaysi davr voqealarini aks ettirayotgan bo’lsa, shu zamon ruhini kitobxon to’la his qila oladi.

Jo’ra Fozil takrorlardan unumli foydalanganligini e’tirof etish maqsadga muvofiqdir. So’z ustasi o’zining “Qizil quyun” nomli tarixiy asarining to’rt sartdan iborat kichik bir qismida to’rt marotaba “lashkari islom” jumlasini qo’llaydi. “Lashkari islom... Sho’ro murtdlari tilida bosmachilar... Endi Buxoroni bir muddat bo’lsa-da, ozod qilgan lashkari islom yo’q, lashkari islom mag’lub bo’ldi! Lashkari islomdan men singari bir to’da darbadar-u xokbasarlar qoldi” [1, 223]. Mazkur usul asarning ta’sirchanligi oshishiga xizmat qiladi.

Nosirning “Ayriliq ostonasi” nomli tarixiy romanida uchraydigan “sariq ro’molini sudragan qiz”, “bahor qaridi”, “qor ko’rpasi”, “salqin sahrolar”, “yerning iliq siynasi” kabi tashbehlar mavjud bo’lib, bular asarning badiiy qiymatini oshirgan.

Mazkur romanda yozuvchi qahramon ruhiy holatini ifodalash uchun o’z nutqi emas, balki obrazlar nutqiga tayanadi. “Men taqdir zarbalariga dosh berib, jimgina o’tiradiganlardan emasman. Men Xaqiqatan ham ulug’ ishlarga qodir va hozir odamman”. Asarda yotgan Botur tilidan aytilgan ushbu so’z orqali uning mardligi, taqdir zarbalaridan qo’rqmasligi, kelajakka ulkan ishonch bilan qarashi ayonlashadi. Xuddi shu jihat uning “Oshiq Buxoriy qissalari” turkumiga kiruvchi “Buxoro malikasi” asarida ham mavjud: “Buxoroni tashlab, lashkar to’plagani ketishim zarurat ekaniga malikani ham ishontirolnadim. Demak, a’yonlar bilan mashvarat qilish ham foyda bermagay. Ular ham malika bergan savollarni takror etsalar, ne deyman? Tavakkal qilishga to’g’ri keladur. Yog’iy erta-indin Buxoro sari yuz tutadur...So’ngra nima bo’lishi esa oyday ravshan...” [1,22]

Jo’ra Fozil voqealardagi drammatizmni kuchaytirish, qahramonlar holatini yanada ta’sirchan ifodalash maqsadida ularning ahvoli, ichki ma’naviy dunyosi, xarakteri kabilarni bir-biriga zid holatda qo’yadi. Masalan, “Shahar to’y libosini kiyar ekan, Boturning ko’ngli motam ohanglariga to’lib borar...” jumlasida to’y-motam so’zlari leksik antonimiyani hosil qiladi. Ushbu gapda antonimlarni qo’llash orqali asar qahramonining holini anglash mumkin. Unda tashqi olamdagi to’y va ichki dunyosidagi dilxiralik zid holda ifodalangan.

Adib asarlarida tasvirlanayotgan davr ruhini kitobxonga yetkazishga harakat qilar ekan tarixiy so’zlarni o’rnida qo’llashga ahamiyat qaratadi. Bularga quyidagilar kiradi:

lashkar g’ul – markaz	hirovul – ort tomon
javshan – sovut	barong’or – o’ng qo’l
sipar – qalqon	javong’or – so’l qo’l

tabarzin – jang boltasi
manglay – ilg'or qism

qanbul – qanot himoyasi

Yozuvchi tasvir etayotgan davr ruhini kitobxon to'laqonli his qilishi uchun o'sha vaqtda Xiva xonligida mavjud bo'lgan mahalliy aholi shevasini, qahramonlar nutqini o'z holicha keltiradi. Masalan, "do'g'on", "dur", "al", "dim", "Xivo", "nishatib", "yoshulli", "cherik", "uyina", "O'zbo'y", "sotmag'on" kabilar.

Taniqli adabiyotshunos olim Akram Kattabekov ta'kidlaganidek, "xalq tilida singarmonizm qonuni hukmron. Aytaylik, "borgan" emas "borg'on", "qo'ygan" emas "qo'yg'on" deb gapirish odat tusini olgan. Hozir yo'q bo'lib ketgan ba'zi so'zlar ham iste'molda. Chunonchi, ilik (qo'l), cherik (askar) kabi va hokazolar. Har qalay tekstda tushunarli bo'lib turgan va ataylab lug'at ko'rish shart bo'lmagan ayrim so'z va iboralarni qo'llash zamon ruhiga yaqinlashtiradi va asarning ishontirish kuchini oshiradi" [2,38].

Jo'ra Fozil mazkur asarida moziyda bo'lib o'tgan voqealarga jon baxsh etish maqsadida obrazlar nutqida badiiyati yuqori bo'lgan ijobiy ma'noli so'zlar, jummalarni qo'llagan, mulozamat ko'rsatish, iltifot qilish kabi hodisalardan unumli foydalangan. Mazkur holatlar asarning ta'sirchan va jozibali bo'lishiga xizmat qilgan. Masalan, Pyotr Ining Bekovich-Cherkasskiyga "azizim" deya murojaat qilishi, unga iltifot qilib, o'tirishi uchun joy ko'rsatishi, "barakalla" so'zini qo'llash orqali suhbatdoshini ruhlantirishi, Lyubov Ernazarga "azizim" tarzida gapirib, unga mulozamat ko'rsatishi, Yekaterina II elchiga "do'sti aziz", "do'stim" deb murojaat qilishi kabilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фозил Ж.Ошиқ Бухорий қиссалари.–Тошкент:Янги аср авлоди,2017.– 320 б 2.
2. Kattabekov A. Tarixdan saboq olib. O'zbekiston adabiyoti va san'ati haftaligi, 1997.
3. Фозил Ж. Хонгулнинг саргузаштлари. Қиссалар ва ҳикоялар. –Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 214.
4. Sayyora, L. (2024). Image of the Ambassador in the Creation of Jora Fazil. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 131-135.
5. Latipova, S. (2024). TARIXIY ROMANDA DARVESH OBRAZI (YOZUVCHI JORA FOZILNING "AYRILIQ OSTONASI" ROMANI ASOSIDA). Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(1), 58-61.